
BIRINCHI SENTYABRDAN O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON CHEGARASIDAN ID-KARTA BILAN O'TISH MUMKIN BO'LADI



Birinchi sentyabrdan O'zbekiston-Qirg'iziston chegarasidan ID-karta bilan o'tish mumkin bo'ladi

2023 yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg'iziston Respublikasi Hukumati o'rtasida fuqarolarning o'zaro kelib-ketishlari to'g'risidagi Bitimga o'zgartirishlar kiritish haqida Bayonnoma (Bishkek shahri, 2023 yil 27 yanvar) kuchga kirdi.

Shuni qayd etish lozimki, ikki davlat hududiga kirish, undan chiqish, tranzit o'tish, harakatlanish va unda bo'lib turish uchun identifikatsiya ID-kartasidan amalda foydalanish o'zaro kelishuvga ko'ra, 2023 yil 1 sentyabr soat 00:00dan boshlab yo'lga qo'yiladi.

Bayonnoma bilan kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, ikki davlat fuqarolari uchun Davlat chegarasini kesib o'tishning soddalashtirilgan yagona tartibi joriy etildi.

Jumladan, bundan buyon O'zbekiston va Qirg'iziston fuqarolari 60 kungacha identifikatsiya ID-kartasi bilan ikki davlat hududlariga kirishlari, harakatlanishlari va unda bo'lib turishlari mumkin.

O'zbekiston fuqarolari xorijga chiqish biometrik pasporti bilan Qirg'iziston Respublikasiga kirish, undan chiqish va tranzit orqali boshqa davlatlarga o'tishlari mumkin.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-25 16:43:59